



2021- yilning yanvar-may oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-may oylarida Navoiy viloyatida jami **1 807,6** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **103,9 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 609 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **107,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **107,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,3 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **105,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,4 %**) o'sishidir.



**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish
korxonalari soni (birlikda)**

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.06.2020- yil	01.06.2021- yil	
	Navoiy viloyati	1 509	1 609	106,6
	Navoiy sh.	416	457	109,9
	Zarafshon sh.	121	132	109,1
	<i>tumanlar:</i>			
	Karmana	245	267	108,9
	Konimex	38	36	94,7
	Qiziltepa	219	236	107,8
	Navbahor	179	190	106,1
	Nurota	98	103	105,1
	Tomdi	40	41	102,5
	Uchquduq	57	51	89,5
	Xatirchi	96	96	100,0


Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (28,4 %), Karmana (16,6 %) va Qiziltepa (14,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **278,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **75,3** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **7,5** punktga kamayib, **15,4** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-may oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **57,6 %** i yoki 2020- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **20,5 %** kamaygan), Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,2 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,6 %** ko'paygan), va Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,7 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,5 %** kamaygan) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,0 %** i to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-may oylari ko'rsatkichiga nisbatan **12,1** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **120,3 %** ni tashkil etgan holda **1 210,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **17,6 %** ni tashkil etdi yoki **318,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **87,3 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **263,0** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 544,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **14,6 %** va **85,4 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar-may oyida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	1 807,6	1 544,6	100,0	263,0	100,0
Navoiy sh.	469,7	356,8	23,1	112,9	42,9
Zarafshon sh.	278,5	165,0	10,7	113,5	43,2
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	201,4	164,8	10,6	36,6	13,9
Konimex	29,1	29,1	1,9		
Qiziltepa	366,6	366,6	23,7		
Navbahor	145,3	145,3	9,4		
Nurota	127,7	127,7	8,3		
Tomdi	16,6	16,6	1,1		
Uchquduq	29,3	29,3	1,9		
Xatirchi	143,4	143,4	9,3		

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-may oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 69,7 % i yoki **1 259,8** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

69,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **278,5** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 15,4 % ni tashkil etdi.

15,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 210,2** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 67,0 % ni tashkil etdi.

67,0 %

Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **318,9** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 17,6 % ni tashkil etdi.

17,6 %




**2021- yilning yanvar-may oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Navoiy viloyati	1 807,6	103,9	1 115,8
Navoiy sh.	469,7	93,7	294,6
Zarafshon sh.	278,5	86,3	198,6
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	201,4	115,9	122,7
Konimex	29,1	111,1	12,3
Qiziltepa	366,6	129,5	186,3
Navbahor	145,3	103,5	75,9
Nurota	127,7	108,2	62,5
Tomdi	16,6	100,8	5,6
Uchquduq	29,3	103,8	27,9
Xatirchi	143,4	111,2	129,4

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **15,2 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **24,4** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **13,9** punktga ko'payib, **82,1 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-may oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **3,1** punktga kamayib, **2,9 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **16,9 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **4,7 %** kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **83,1 %** (**9,5 %** ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **7,0 %** kamaydi va **20,1 %** ni tashkil etdi. Qolgan **79,9 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,2 %** ko'paydi.

ulushi, % da



2020- yil
yanvar-may



2021- yil
yanvar-may

2021- yil
yanvar-may

Navoiy viloyatida qurilish ishlari

14



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-may oylarida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	1 807,6	1 259,8	304,4	243,4
Navoiy sh.	469,7	342,7	75,2	51,8
Zarafshon sh.	278,5	169,6	75,4	33,5
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	201,4	124,4	53,7	23,3
Konimex	29,1	21,4	4,5	3,2
Qiziltepa	366,6	275,5	29,8	61,3
Navbahor	145,3	97,3	24,2	23,8
Nurota	127,7	96,4	14,4	16,9
Tomdi	16,6	12,1	1,9	2,6
Uchquduq	29,3	14,3	7,0	8,0
Xatirchi	143,4	106,1	18,3	19,0

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar
qurilishining ulushi, % da




Bino va inshootlar qurilishi,
jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Nurota tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 75,5 % i yoki **96,4** mlrd. so'm), shuningdek, Qiziltepa tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 75,1 % i yoki **275,5** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 74,0 % i yoki **106,1** mlrd. so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-may oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 27,1 % i yoki **75,4** mlrd. so'm), Karmana tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 26,6 % i yoki **53,6** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 23,8 % yoki **7,0** mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 27,4 % i yoki **8,1** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 16,7 % i yoki **61,3** mlrd. so'm), Navbahor tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 16,3 % i yoki **23,7** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2021- yilning yanvar-may oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'mda



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Navoiy shahri (469,7 mlrd. so'm), Qiziltepa (366,6 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (278,5 mlrd. so'm), Karmana (201,4 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 202-85-20; (79) 223-54-73